

“Sport bilan baxtli hayot sari!” — kimyo sanoati xotin-qizlari sport maydonida

// 15.06.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sport-bilan-baxtli-hayot-sari-kimyo-sanoati-xotin-qizlari-sp>



Toshkent shahridagi Olimpiya shaharchasida “Sport bilan baxtli hayot sari!” shiori ostida o‘tkazilayotgan **“Yangi O‘zbekiston ayollar olimpiadasi”** respublika bosqichiga start berildi.

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur sport tadbirining ochilish marosimida Bosh vazir o‘rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Zulayho Mahkamova, Sport vaziri Adham Ikramov sportchi va havaskor ayollar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.



Mazkur nufuzli sport tadbirida "O'zkiyosanoat" AJ tizimida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar ham faol ishtirok etib, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, jismoniy faollikni oshirish va sportga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirish yo'lida o'z hissalarini qo'shmoqdalar.



Tadbir doirasida ishtirokchilar ommaviy badantariya mashqlarida qatnashib, **"Besh ming qadam" yurish marafonida ham faol ishtirok etdilar.** Bunday sport tadbirlari nafaqat sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, balki xotin-qizlarning faolligi, intilishi va birdamligini namoyon etishga xizmat qilmoqda.



